

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 1, January 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/4>

METHODS OF MORAL EDUCATION IN THE VIEWS OF ORIENTAL THINKERS AND THE MODEL OF MODERN SPIRITUAL AND MORAL COMPETENCE

Yuldasheva Mastura Islamovna

TIPI “Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: masturaislamovna@gmail.com Tel: 91-777-95-45

Abstract

The article discusses the views of moral education formed in different civilizational spaces of the East and their application in the development of spiritual and moral competencies in the process of modern higher education. The study was conducted on the basis of educational wisdoms and concepts from the heritage of Confucius (China), Mahatma Gandhi (India), Saadi Sherrozi (Iran), Jalal ad-Din Rumi (Anatolia), Nizami Ganjavi (Azerbaijan). The methodology includes conceptual analytical, comparative-historical, case-study and competency modeling approaches. The results reveal the content of methods of moral education (example, interview, discussion, habituation, accounting/reflection, social service) and propose methodological solutions on the example of typical situations in the life of students of Uzbekistan: academic honesty (culture of plagiarism and work with sources), etiquette of digital communication (ethics of group chats), justice of the collective project (contribution and responsibility), cultural management of stress and conflict, professional etiquette (practical discipline). It also proposed a 5-component model of moral competencies: value-goal, cognition-content, behavior-action, reflexion-self-management, social interaction blocks and indicators for their assessment.

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 1, January 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/4>

Keywords: Ethics education, spiritual and ethical competence, Confucius, Gandhi, Sa'di Sherrozi, Jalal ad-Din Rumi, Nizami Ganjavi, academic honesty, digital ethics, reflexion.

ANNOTATSIYA

Maqolada Sharqning turli sivilizatsion makonlarida shakllangan axloqiy tarbiya qarashlari va ularni bugungi oliy ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga tatbiq etish masalasi yoritiladi. Tadqiqot Konfutsiy (Xitoy), Mahatma Gandi (Hindiston), Sa'diy Sheroziy (Eron), Jaloliddin Rumiy (Anatoliya), Nizomiy Ganjaviy (Ozarbayjon) merosidagi tarbiyaviy hikmatlar va konseptlar asosida olib borildi. Metodologiya konseptual-tahliliy, qiyosiy-tarixiy, vaziyatli tahlil (case-study) hamda kompetensiyaviy modellashtirish yondashuvlarini qamrab oladi. Natijalarda axloqiy tarbiya metodlari (namuna, suhbat, muhokama, odatlantirish, muhasaba/refleksiya, ijtimoiy xizmat)ning mazmuni ochib berilib, O'zbekiston talabalari hayotida uchraydigan tipik holatlar: akademik halollik (plagiat va manba bilan ishlash madaniyati), raqamli muomala odobi (guruh chatlari etikasi), jamoaviy loyiha adolati (hissa va mas'uliyat), stress va konfliktni madaniy boshqarish, kasbiy odob (amaliyot intizomi) misolida metodik yechimlar taklif etiladi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarning 5 komponentli modeli: qadriyat-maqсад, bilim-mazmun, xulq-amal, refleksiya-o'zini boshqarish, ijtimoiy hamkorlik bloklari va ularni baholash indikatorlari tavsiya etildi.

KALIT SO'ZLAR

Axloqiy tarbiya, ma'naviy-axloqiy kompetensiya, Konfutsiy, Gandi, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy, akademik halollik, raqamli etika, refleksiya.

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 1, January 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

KIRISH

Bugungi tez o'zgarib turgan dunyo sharoitida ta'lim va kasbiy faoliyat sohasida yangi talablar paydo bo'lmoqda. Iqtisodiy rivojlanish, texnologik innovatsiyalar va ijtimoiy o'zgarishlar insondan nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki kuchli ma'naviy-axloqiy asosga ega bo'lishni talab qilmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv bugungi ta'limning asosiy paradigmasiga aylangan bo'lsa-da, ta'lim natijasining barqarorligi ko'p jihatdan shaxsning ma'naviy-axloqiy poydevoriga bog'liq [1]. Talaba bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi bilan birga, halollik, adolat, mas'uliyat, hurmat, empatiya, o'zini boshqarish kabi xulqiy sifatlarni ichki me'yor darajasiga ko'tara olmasa, kasbiy tayyorgarlikning ijtimoiy qiymati pasayadi. O'zbekiston oliy ta'lim muhitida ham akademik halollik masalasi, jamoada ishlash madaniyati, raqamli muomala etikasi, amaliyot intizomi kabi ko'plab vaziyatlar aynan axloqiy tanlov bilan belgilanadi. Sharq tafakkuri tarbiya masalasiga faqat nasihat darajasida emas, balki metodik tizim sifatida yondashadi: odozni odatga aylantirish, namuna ko'rsatish, muhokama orqali ongni uyg'otish, muhasaba bilan ichki nazoratni kuchaytirish va amaliy xizmat orqali jamiyatga foyda keltirishga yo'naltirish. Shu ma'noda, turli davlatlar va madaniy makonlardan tanlangan mutafakkirlar merosi (Xitoy-Hindiston-Eron-Anatoliya-Ozarbayjon) bugungi ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar modelini boyitish imkonini beradi.

Maqsad va vazifalar

Maqsad - Sharq mutafakkirlari qarashlaridagi axloqiy tarbiya metodlarini tizimlashtirish va ularni O'zbekiston talabalari misolida ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar modeli bilan integratsiyalash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Vazifalar: axloqiy tarbiya metodlarini konseptual tasniflash, mutafakkirlar g'oyalarini iqtibos va izohlar asosida tahlil qilish, talabalarga xos vaziyatlarda

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 1, January 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/4>

metodik yechimlar ishlab chiqish, kompetensiyalar modeli va indikatorlarini taklif etish.

METODLAR

Tadqiqot nazariy-analitik yo‘nalishda olib borildi va quyidagi metodlar qo‘llandi:

- 1) Konseptual-tahliliy yondashuv: “odob”, “insonparvarlik”, “haqiqat”, “adolat”, “qalb tarbiyasi” kabi kategoriyalar kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘un talqin qilindi.
- 2) Qiyosiy-tarixiy metod: turli sivilizatsiyalarda axloqiy tarbiya metodlarining umumiy va farqli jihatlari taqqoslandi.
- 3) Vaziyatli tahlil (case-study): O‘zbekiston oliy ta’limida uchraydigan tipik holatlar asosida metodlarning amaliy mexanizmlari ishlab chiqildi.
- 4) Modellashtirish: ma’naviy–axloqiy kompetensiyalar 5 komponentli model ko‘rinishida tuzildi va baholash indikatorlari tavsiya etildi.

NATIJALAR

1. Axloqiy tarbiya metodlarining tizimi

Tahlil natijasida Sharq merosida uchraydigan tarbiyaviy yondashuvlar zamonaviy oliy ta’lim sharoitida besh asosiy metodik blok sifatida jamlanadi:

- 1-namuna (model) metodi;
- 2- suhbat–muhokama va hikmat (nasihat) metodi;
- 3- odatlantirish va mashq metodi;
- 4- muhasaba/refleksiya va o‘zini boshqarish metodi;
- 5- ijtimoiy xizmat (foydali faoliyat) metodi.

Ushbu metodlar bir-birini to‘ldiradi: suhbat ongni uyg‘otsa, odatlantirish xulqni barqarorlashtiradi, muhasaba esa ichki nazoratni kuchaytiradi.

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 1, January 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/4>

Mutafakkirlar qarashlari asosida metodlar va kompetensiyalar

Konfutsiy (Xitoy): odob va “oltin qoida”

Konfutsiy axloqning amaliy mezonini munosabat madaniyati va odobda ko‘radi. Unga ko‘ra, inson boshqaga qanday munosabatni istamasa, o‘zi ham shunday munosabatni ravo ko‘rmasligi kerak. “O‘zing istamagan narsani boshqalarga ravo ko‘rma” g‘oyasi talabning raqamli muhitdagi xulqini ham tartibga soluvchi universal me‘yor bo‘la oladi [2].

Hayotiy vaziyat: guruh chatlarida kesatq, shaxsga tegish, “ommaviy uyaltirish” holatlari uchraganda jamoa iqlimi buziladi, talabning o‘qishga bo‘lgan ishonchi pasayadi. Metodik yechim: talabalar bilan “raqamli odob kodeksi” (5–7 band) tuzish, nizolarni “Fakt–His–Taklif” formulasi bilan hal qilish; moderatorlik (guruh sardori/tyutor) orqali madaniyatni ushlab turish. Kompetensiya natijasi: empatiya, hurmat, konfliktni madaniy boshqarish.

Mahatma Gandi (Hindiston): haqiqat va zo‘ravonliksizlik orqali o‘zini boshqarish

Gandi talqinida axloqiy kuch - boshqani yengish emas, o‘zini yenga olishdir. Zo‘ravonliksizlik va haqiqatga sadoqat shaxsning ichki intizomini mustahkamlaydi. “Zo‘ravonliksizlik - kuchsizning yo‘li emas u jasurning yo‘lidir” degan mazmunda bayon etiladigan fikr talaba bahs-munozarada ham madaniyatni saqlashi, bosim o‘tkazmasligi va dalil bilan gapirishi zarurligini anglatadi [3].

Baholashdan norozi bo‘lgan talaba yoki jamoa ichida kelishmovchilik chiqqanda “tajovuzkor ohang”, keskin so‘z, kamsitish kuchayishi mumkin. Metodik yechim: “debate etikasi” (shaxsga tegmaslik, dalil, navbat, xulosa)ni o‘rgatish, “men-xabar” texnikasi, 10 soniyalik pauza va nafas mashqlari. Kompetensiya natijasi: emotsional barqarorlik, tolerantlik, adolatli muloqot.

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 1, January 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/4>

Sa'diy Sheroziy (Eron): odob va tarbiya - ijtimoiy hayot san'ati

Sa'diy "Guliston"da odob va tarbiyani hikoyatlar, pand-nasihatlarni orqali yoritadi. Unda odob insonning ziynati ekani, odobsiz ilmning natijasi sust bo'lishi ta'kidlanadi. "Odob - insonning ziynati" mazmunidagi hikmat talaba uchun dars intizomi, muomala madaniyati, kasbiy etikaga amal qilishning konseptual asosidir [4].

Auditoriyada telefondan bezovta foydalanish, o'qituvchi so'zini bo'lish, amaliyotda salomlashmaslik, muomala ohangini nazorat qilmaslik kabi holatlar "odob" kompetensiyasining sustligini ko'rsatadi. Metodik yechim: "odob cheklisti" (salomlashish, murojaat, nutq, vaqt, minnatdorlik), haftalik "xulqiy muhasaba" (5-7 jumla) va ijobiy namuna (ustoz-shogird) mexanizmi. Kompetensiya natijasi: kasbiy odob, mas'uliyat, muomala madaniyati.

Jaloliddin Rumi (Anatoliya): qalb tarbiyasi va refleksiya

Rumi ma'naviy tarbiyani ichki dunyo, qalb pokligi va o'zini anglash bilan bog'laydi. Unga ko'ra, xulqni tuzatish tashqi nazoratdan ko'ra, ichki uyg'oqlik (o'zini bilish) bilan barqaror bo'ladi. "O'zini bilgan kishi yo'lini topadi" mazmunidagi hikmat talabaning refleksiya va o'zini boshqarish kompetensiyasiga bevosita mos keladi [5].

Imtihon davrida stress, hasad, raqobatning noxolis shakllari, "tezroq topshirish" uchun halollikdan chekinish holatlari uchrashi mumkin. Metodik yechim: reflektiv kundalik, "3 daqiqalik muhasaba" mashqi (bugun kimga yaxshilik qildim? kimni ranjitdim? nimani tuzataman?), mentorlik suhbatlari. Kompetensiya natijasi: o'zini nazorat, vijdoniy tanlov, psixologik barqarorlik.

Nizomiy Ganjaviy (Ozarbayjon): adolat va komillik me'yorlari

Nizomiy asarlarida adolat va odob komillikning ikki tayanchi sifatida talqin qilinadi. "Adolat - ziynat, odob - ziynat" mazmunidagi fikr bugungi kasbiy

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 1, January 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

ta'limda etik me'yorlar, xizmat intizomi va adolatli baholash tamoyillarini mustahkamlaydi [6].

Pedagogik amaliyotda vaqtga rioya qilmaslik, hujjatlarni mas'uliyatsiz yuritish, jamoa oldida o'zini tutish madaniyatining sustligi talabaning kasbiy obro'siga zarar yetkazadi. Metodik yechim: amaliyot uchun "kasbiy odob chek-listi", har hafta "xulqiy tahlil" (qaysi vaziyatda adolat/odobni saqladim? qaysida buzdim? sabab? tuzatish rejasi). Kompetensiya natijasi: kasbiy etika, intizom, adolat, mas'uliyat .

Ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar modeli

Tadqiqot natijasida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar 5 komponentli model ko'rinishida tavsiya etiladi:

- 1) Qadriyat–maqsad komponenti: halollik, adolat, hurmat, insonparvarlik, vijdon.
- 2) Bilim–mazmun komponenti: akademik halollik qoidalari, manba bilan ishlash madaniyati, raqamli etika, kasbiy etika me'yorlari.
- 3) Xulq–amal komponenti: plagiatsiz yozish, jamoada adolatli ishlash, muomala odobi, vaqt va intizomga rioya.
- 4) Refleksiya–o'zini boshqarish komponenti: muhasaba, xatoni tan olish, stressni boshqarish, o'zini baholash.
- 5) Ijtimoiy hamkorlik komponenti: jamoada ishlash, murosa, empatiya, ijtimoiy xizmat (ko'ngillilik).

4. Talabalar hayotidagi tipik vaziyatlar bo'yicha metodik paket

Akademik halollik - bu ta'lim va ilmiy faoliyatda halollik, asliylik, mas'uliyat va hurmat tamoyillariga asoslangan, bilim olish va ijod qilish jarayonida etika normalarini qat'iy saqlash tushunchasidir [7].

Quyida O'zbekiston talabalari hayotida eng ko'p uchraydigan 5 vaziyat va ularga mos tarbiyaviy yechimlar keltiriladi:

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 1, January 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

- A) Akademik halollik: plagiat va manba ko'rsatmaslik. Yechim: "halollik deklaratsiyasi", manba bilan ishlash bo'yicha mini-trening, refleksiya kundaligi.
- B) Jamoaviy loyihada adolat: hissa notengligi. Yechim: rol taqsimoti, oraliq hisobot, individual hissa dalillari, jamoa muhasabasi.
- C) Raqamli muomala: chatlarda kamsitish/haqorat. Yechim: "raqamli odob kodeksi", konfliktni "Fakt-His-Taklif" bilan hal qilish, moderatorlik.
- D) Bahs va nizo: tajovuzkor ohang. Yechim: debat etikasi, "men-xabar", stressni boshqarish mashqlari.
- E) Kasbiy odob (amaliyot): vaqt, kiyinish, nutq. Yechim: kasbiy chek-list, haftalik xulqiy tahlil, mentorlik.

Pedagogik etik va muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatining ajralmas bo'lib, ta'lim jarayonida ishonch va muhitni rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogning nutqi, muomala uslubi, odobi va kasbiy mas'uliyati o'quvchining shaxsiyiga hurmat, adolat, xolislik hamda mehr-oqibat oqibatlariga tayanishi zarur [8]. Muloqot jarayonida tinglay bilish, fikrni aniq va muloyimlash, bahsli narsada hisyotlarni boshqarish, kamsitmasdan tanqid qilish va ra rag' tutish kabi pedagogik ta'sirni ifodalash, ota-onasi va hamkasblar bilan hamkorlikdagi muloqotda ham kasbiy ta'lim, xavfsizlik va mas'uliyatni boshqarish ta'lim sifati hamda tarbiyaviy dastur uchun muhim ahamiyatga ega.

MUNOZARA

Mutafakkirlar merosini zamonaviy ta'limga integratsiya qilishda uch masala muhim:

klassik g'oyalarni kompetensiya tiliga mos talqin qilish;

nazorat (qoidalar) va erkinlik (ongli tanlov) muvozanatini saqlash;

axloqiy natijani baholashning ko'p manbali diagnostikasini yo'lga qo'yish.

Akademik halollikni faqat antiplagiat foizi bilan baholash yetarli emas, talabning manba bilan ishlash ko'nikmasi, refleksiv izohi, portfoliyosi ham e'tiborga olinishi zarur. Shuningdek, raqamli etikani ta'lim muhitining ichki

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 1, January 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

madaniyati sifatida shakllantirish (kodeks, namuna, muhokama) ijtimoiy-psixologik iqlimni sogʻlomlashtiradi .

XULOSALAR

- 1) Sharq mutafakkirlari qarashlarida axloqiy tarbiya metodlari tizimli boʻlib, namuna, suhbat–muhokama, odatlantirish, muhasaba/refleksiya va ijtimoiy xizmat metodlari bugungi oliy taʼlim muassasalari sharoitida ham samarali qoʻllanadi.
- 2) Konfutsiy odob va empatiyani, Gandi oʻzini boshqarish va zoʻravonliksizlikni, Saʼdiy muomala va odobni, Rumiychi ichki tarbiya va refleksiyani, Nizomiy adolat va kasbiy etikani tarbiya mezonini sifatida yoritadi.
- 3) Oʻzbekiston talabalari hayotida dolzarb boʻlgan akademik halollik, raqamli etika, jamoaviy masʼuliyat, konfliktni madaniy boshqarish va amaliyot intizomi masalalarida ushbu meros amaliy metodik yechimlar beradi.
- 4) Taklif etilgan 5 komponentli maʼnaviy-axloqiy kompetensiyalar modeli tarbiyaviy ishlarni natijaga yoʻnaltirish va baholash indikatorlarini belgilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Kompetensiyaviy yondashuv boʻyicha metodik qoʻllanmalar (Oʻzbekiston Milliy universiteti). Toshkent 2020, 3-b
2. Konfutsiy. 2015, 57-b. Konuşmalar (Analektler) (S. Eyüboğlu, Çev.). İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları.
3. Gandhi, M. K. (1993). An Autobiography: The story of my experiments with truth. Boston, MA: Beacon Press.
4. Saʼdiy Sheroziy. Guliston. Toshkent.2012, 37-b
5. Jaloliddin Rumiychi. (2012). Masnaviy (tanlangan hikoyatlar). Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti.
6. Nizomiy Ganjaviy. Xamsa. Toshkent nashriyoti. 2015, 46-b

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 1, January 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

7. Akademik halollik bo'yicha OTM ichki me'yoriy hujjatlari 2021, 12-b
8. Pedagogik etika va muloqot madaniyati bo'yicha o'quv qo'llanma. - Toshkent 2022, 18-bet.